


O'ZBEK
VA JAHON XALQ ERTAKLARI



Ed
M-60



MITTI BOLA

Китоб шу ерда кўрсатилган муддатдан
кечиктирилмаган ҳолда топширилиши шарт

Илгариги берилмалар миқдори _____

--	--

O'ZBEK VA JAHON XALQ ERTAKLARI



MITTI BOLA

Toshkent
«Yangi kitob»
2019

UO‘K: 398.21

KBK 82.3(0)

M 60

Mitti bola: O‘zbek va jahon xalq ertaklari va afsonalari / to‘plovchi
U.Rahmatullayev. – Toshkent: «Yangi kitob», 2019. – 48 b.

ISBN 978-9943-4752-7-4

UO‘K: 398.21

KBK 82.3(0)

Kitob kichik va o‘rta maktab yoshidagi bolalarni o‘zbek xalq ijodining boy merosi bilan tanishtiradi. Ular qiziqarli va g‘aroyib ertaklar, rang-barang yorqin rasmlar orqali mamlakatimiz tarixiy o‘tmishining donishmand ma’naviy va madaniy qadriyatlari bilan tanishadilar.

To‘plovchi: Umid Rahmatullayev

Muharrir: Navro‘z BEKMURODOV

Musavvir: O‘tkir TOJIBOYEV

Dizayner: Inomjon O‘SAROV

Nashriyot litsenziyasi: AI N 255, 31.12.2014

Bosishga 2019-yil 15-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 ¹/₃₂.

2,52 shartli bosma toboq. Adadi 10000 nusxa.

282-buyurtma.

«Yangi kitob» nashriyotida tayyorlandi.

100138, Toshkent shahri Uchtepa tumani,

Chilonzor dahasi, 13-mavze 45-uy.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Administratsiyasi huzuridagi

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

100128, Toshkent, Labzak ko‘chasi 86.

ISBN 978-9943-4752-7-4

© U.Rahmatullayev, 2019.

© «Yangi kitob» MЧЖ, 2019.

OLTIN SOCHLI YIGIT

(O'zbek xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Hasan degan bog'bon o'lgan ekan. Uning farzandi yo'q ekan. Shu tufayli hamisha ezilib yurarkan. Hasanning uyiga yaqin tog'da yalmog'iz kampir yashar ekan. Qirqta dev uning xizmatida ekan. Yalmog'iz kampir tushda bir tuyani, kechqurun yettita qo'yni yamlab yutar ekan. U qishloq va shaharlarda yurib, kichik bolalarni o'g'irlar ekan. Ovqatini esa qirq kishi ham ko'tarolmaydigan doshqozonda pishirarkan.



Bir kuni yalmog'iz kampir Hasan yashaydigan qishloqqa kelib, sadaqa so'rabdi. Bog'bon unga ma'yusgina qarab, qo'lidagi nonni beribdi.

– Hoy, odamzod, nega xafasan, tila tilagingni, muhayyo qilaman, – debdi kampir.

– Hamma narsam bor, faqat o'g'lim yo'q. O'lganimda tuprog'imni tepkilab ko'madigan farzandim yo'q. Shunga xafaman, – debdi Hasan.

Shunda yalmog'iz kampir xaltasidan bir olma chiqarib:

– Shu olmani xotining yesin, senga o'g'il tug'ib beradi, – debdi. – Faqat bir shartim bor, o'g'ling yetti yoshga kirganda menga berasan, unga hunar o'rgataman.

Kunlar o'tib, oylar o'tib, yalmog'izning aytgan kuni yetib kelibdi. Hasanning xotini o'g'il tug'ibdi. U nihoyatda chiroyli va sho'x ekan. Hasan va xotini o'g'illarini jonidan ham aziz ko'rarkanlar.

Oradan yetti yil o'tgach, yalmog'iz bolani olib ketgani kelibdi. Bolaning ota-onasi rosa yalinib-yolvorishsa ham, baribir olib ketibdi. Ular yo'lda keta-yotib, bir kampirga duch kelishibdi. U rahmdil pari ekan. Yalmog'iz bir uyga sadaqa so'ragani kirib ketganda, rahmdil pari bolaning yoniga kelib, sekingina dedi:

– Bolam, seni olib ketayotgan yalmog‘iz kampir bo‘ladi. U uyiga borgandan so‘ng, o‘choqqa o‘t yoqtiradi. O‘zi esa bir qo‘yning quyrug‘ini to‘g‘rab qozonga tashlaydi, senga esa cho‘mich bilan aylantirib tur, deydi. Shu payt ziyrak bo‘lib tur-da: “Nima qilishimni o‘zingiz ko‘rsatib bering”, degin. Cho‘michni olib qozon tepasiga engashganda, uni qozonga itarib yubor, – rahmdil pari shunday debdi-yu, ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.



Yalmog‘iz bilan bola uyga kelishganda xuddi rahmdil pari aytganidek bo‘libdi. Bola yalmog‘izni qozonga itarib yuborganda, yog‘ ko‘pirib ketibdi. Yalmog‘iz til tortmay o‘libdi. Keyin bola ko‘zadagi suvga qo‘lini yuvib, sochlarini silagan ekan, sochlari oltin bo‘lib qolibdi.

Bola uyning u yoq-bu yog‘ini qaramoqchi bo‘lganda, to‘satdan bo‘yniga qirqta kalit osilgan bir mushuk kelib qolibdi. Bola mushukning bo‘ynidan kalitlarni olibdi. Birinchi kalit bilan bir xonani ochsa, ichkarida, qirqta bola yig‘lab o‘tirgan emish. Bolalarning hammasini o‘z uyiga qo‘yib yuboribdi. Keyin birin-ketin boshqa xonalarni ham ochibdi. Bir xona maldunyoga to‘la emish. Yana boshqasini ochsa, unda uchta rahmdil dev o‘tirgan ekan. O‘ttiz to‘qqizinchi xonada uchta zotli ot bog‘liq emish. Qirqinchisida esa uchta oltin qafasda uchta chiroyli qush o‘tirgan ekan.

Bola uydan chiqib, nima qilarini bilmay, hayron bo‘lib turganda boyagi uchta dev unga bittadan uzuk, bittadan qush pati va bittadan ot dumining tolasidan beribdilar-da, debdilar:

– Ey, oltin sochli bola, bu yerdan tezroq jo‘na, bo‘lmasa hozir yalmog‘izning xizmatkorlari – devlar kelib qoladi. Bordi-yu, boshingga biror mushkul ish tushsa, bitta uzuk, bitta pat va bitta qilni olovga tashlasang, biz darrov yordamga yetib kelamiz.

Bola yalmog'izning uyidan chiqib ketibdi. Uzoq yo'l yuribdi. Kech ham kiribdi, axiri qaysidir qishloqqa yetib boribdi. Bir uyning eshigini taqillatibdi. Uydan bir kampir – rahmdil pari chiqibdi.

– Men ota-onamdan olislarda yuribman. Uyingizda tunashga ruxsat bering, – iltimos qilibdi bola.

– Mayli, kiraqol. Ana, bog'imga kir, to'yguningcha o'rik, shaftoli, uzum yeb ol. Menga o'g'il bo'lgin, – debdi kampir.

Bola kampirnikida qolib, uy ishlarida qarashib yuraveribdi. Kunlar o'tibdi, oylar o'tibdi, yillar ham o'tibdi. Bola ancha o'sib-ulg'ayib, yigitcha bo'libdi. Kampir unga ov qilish, ovqat pishirish, ekin ekish, hosilni yig'ib olishni o'rgatibdi.

Bir kuni oltin sochli yigit un, guruch sotib olgani shaharga boribdi.

Shahar podshosining uchta qizi bor ekan. Ular saroy tomiga chiqib olib, atrofni tomosha qilishayotgan ekan. Qizlarning ko'chadan o'tib ketayotgan oltin sochli yigitga ko'zlari turishibdi. Podshoning kichik qizi unga oshiq bo'lib qolibdi.

Kunlar o'tib, podsho qizlarini uzatadigan bo'libdi. U shu yurt udumiga ko'ra mamlakatdagi jami yigitlarning saroy oldidan o'tishlarini tayinlabdi. Shu mu-

nosabat bilan sayil o'tkazibdi. Qizlarini saroy tomiga chiqaribdi-da:

– O'zingizga yoqqan yigitga gul tashlaysiz, – deb tayinlabdi.

Katta qizlari yaxshi yasangan, boy yigitlarga gullarini tashlashibdi. Podshoning kichik qizi esa eg-nida eski chopon, boshiga telpagini bostirib olgan ko'rimsiz yigitga gul tashlabdi. Chunki qiz oltin sochli yigitni tanib qolgan ekan-da.

Podsho katta qizlarining tanlagan kuyovlaridan mamnun bo'libdi. Ularga koshonadan joy ajratibdi. Katta to'y-tomosha qilib beribdi. Kichik qizi tanlagan kuyovni ko'rib, hammaning ensasi qotibdi. Hatto, uning didini masxaralab kulishibdi. Oltin sochli yigitga otxonadan joy berilibdi.

Podsho qizini bu yigitdan aynitmoqchi bo'lib, to'yini ham atay kechiktiribdi.



Kunlardan bir kuni podsho kuyovlarini ovga jo‘natmoqchi bo‘libdi. Ularga eng yaxshi lochinlari, ot-lari, tajribali ovchilarini qo‘shib beribdi.

Oltin sochli yigit ham ovga chiqish uchun podshodan ruxsat so‘rabdi.

– Senga yo‘l bo‘lsin! Yaxshisi, kuyovlarimning ot-lariga qarab tur, – debdi podsho kulib. Kuyovlar ham uni masxaralab kulishibdi.

Keyin hammalari ovga jo‘nabdilar. Ular har to-monga tarqalishgan paytda oltin sochli yigit devlar bergan uzuk, qush pati va ot dumining tolasidan bit-tadan o‘tga tashlabdi. Shu zahoti uchta rahmdil dev paydo bo‘libdi-da, uning aytganlarini hozir-u nozir qilishibdi.

Podshoning kuyovlari cho‘lda izg‘ib yurib, ovla-gani birorta ham o‘lja topolmabdilar. Charchab-horib shaharga qaytayotsalar, yo‘l ustida oltin sochli yigit o‘tirganmish, yonida ovlangan qush va jonivorlar: qirg‘ovul, kiyik, yovvoyi g‘oz, oqqush, kakliklar uyib qo‘yilganmish. Kuyovlar avval hayron bo‘libdilar, ke-yin unga yalina boshlabdilar:

– Iltimos, o‘ljalaringdan bizga ham ber, quruq qay-tishga uyalyapmiz. Bizni nomusdan qutqar. Xohla-sang oltin-kumushlarimizni beraylik, otlarimizni ham olaqol. O‘la-o‘lguncha sening quling bo‘laylik.

– Ha mayli, olaqoling, – deb eng yomon qush va jonivorlardan beribdi.

Taomilga ko‘ra, ovdan qaytgandan so‘ng, har bir ovchi o‘z qo‘li bilan podshoga yegulik tayyorlashi kerak ekan. Podshoning kuyovlari saroy oshxonasida, oltin sochli yigit esa otxonada ovqat tayyorlashibdi.

Ziyofat boshlanibdi. Oltin sochli yigit o‘zi pishirgan ovqatdan ikki tovoqda podshoning oldiga qo‘yib:

– Men ham ovga chiqib, uncha-muncha ovlab kelgandim. Bizning qo‘limizdan ham ovqat yeb ko‘rsangiz, – debdi.

Podsho ko‘ngli tortmaygina palov va kabobdan ham tatib ko‘ribdi. Unga juda yoqibdi.

Ertasi kuni podsho oltin sochli yigitni chaqirib:

– Yana ovga chiqasan. Yaxshi qushlar ovlab kelibsan, ovqat pishirishga ham usta ekansan, – debdi.

Yigit ov qilgani cho‘lga chiqibdi. Yana devlar bergan uzuk, qushning pati va ot tolasini olovga tashlabdi. Shu zahoti devlar paydo bo‘lishibdi-da, yigitning aytganlarini avvalgidan ham ziyod qilib bajarishibdi.

Yigit bu gal ovqat pishirib, tovoqning tagiga ozroq tezak solib qo‘yibdi. Podsho ovqatni ishtaha bilan yebdi, lekin tovoq tagidagi tezakni ko‘rib, jahli chiqibdi.

– Nima sababdan tovoqqa tezak tushgan? – deb so‘rabdi u.

– Kechirasiz, men saroyda emas, otxonada yashayman, qayerdan tezak tushganini sezmay qolibman, – deb javob beribdi oltin sochli yigit.

Podsho xijolat bo‘lib, yigitning saroyga ko‘chib o‘tishiga ruxsat beribdi.

Shundan keyingina oltin sochli yigit boshidan kechirganlarini so‘zlab, boshidagi telpagini olib qo‘yibdi.

Podsho qizi va yigitning to‘yini shod-u xurramlik bilan o‘tkazibdi. To‘ydan keyin yigit podshoning roziligi bilan kelinni olib, keyin esa rahmdil paridan ruxsat so‘rab, o‘z ota-onasining oldida yashash uchun jo‘nab ketibdi.



AFSONANING TUG‘ILISHI

(Pokiston ertagi)

Qadim zamonda bir shahar bo‘lgan ekan. Uning atigi ikkita ko‘chasi va ularni ajratib turgan bitta yo‘l bor ekan. Kunlarning birida odamlar ko‘chaning narigi boshidan o‘zlari tomonga bir darvishning o‘tib kelayotganini ko‘ribdilar. Ular darvishning ko‘zlari yoshga to‘la ekanligini ham e‘tibordan qoldirmabdilar. Shunda odamlardan biri hayajon bilan debdi:

– Aftidan, qo‘shni ko‘chada kimdir vafot etganga o‘xshaydi.

Shundan keyin bu ko‘chaning hamma yashovchilari darvishga qo‘shilib yig‘lay boshlabdilar. Haqiqatda esa hech kim vafot etmagan, darvish piyoz to‘g‘ragani uchun ko‘zlari yoshga to‘lgan ekan.



Boshqa ko'chada yashovchilar esa, qo'shnilarining yig'lashayotganini ko'rib, xavotirlanibdilar, hayajonga tushib, ular ham yig'lay boshlabdilar. Chunki bu ko'chadagilarning narigi ko'chada yashovchi qandaydir yaqinlari, qarindoshlari bor ekan.

Bir aqlli kishi bu ikki ko'chada nima bo'layotganini aniqlash uchun ularning oqsoqollarini kengashga chaqiribdi. O'zaro suhbat chog'ida qattiq xavotirga tushgan bir kishi masalaning mohiyatiga tushunmasdan suhbatga qo'shilib debdi:

– Menimcha, qo'shni ko'chada o'lat tarqalgan.

Bu gapdan keyin shunaqangi sarosimalik boshlanibdiki, noxush xabar yashin tezligida boshqa ko'cha aholisiga yetib boribdi. Har ikkala ko'cha aholisi ham o'z qo'shnilariga o'lat tarqalgan, deb hisoblay boshlabdi. Tezda har ikkala ko'cha aholisi shunday qarorga kelibdi:

– Qo'shni ko'chadan o'lat balosi yetib kelmasidan oldin, shaharni tezda tark etishimiz lozim.

Shundan buyon ko'p asrlar o'tibdi. Ushbu shahar hozirgacha bo'm-bo'sh. Shahardan uncha uzoq bo'lmagan makonda ikkita qishloq paydo bo'lgan. Har bir qishloqning o'z afsonasi bor. Unga ko'ra uzoq-uzoq zamonda hamma joyda o'lat kasalligi tarqalgan paytda bu qishloqlarning aholisi shu yerlarga kelib qolib, bu falokatdan qutulib qolgan emish.



PERSEY VA ANDROMEDA

(Yunon afsonasi)

Bir shaharda katta musibat ro'y beribdi. Qayerdandir qanotli xotin Meduza Gorgona uchib kelibdi. Meduza Gorgonaning boshida sochlari o'rnida tasmadek qora ilonlar bor ekan. Ular har doim to'lg'anib, vishillab turar ekan.

Meduza Gorgona ko'chalar bo'ylab o'tqanda, uning ko'zlariga boqqan har bir odam shu ondayoq tosh haykalga aylanib qolar ekan. Bordi-yu, ko'kda charx urayotgan qush nigohi Meduza Gorgonaga tushib qolsa, u tosh bo'lib yerga qular ekan.

O'sha shaharning ajoyib saroyida podsho Polidekt yashar ekan. U qo'rqoq va kaltafahm began. Podsho Meduza Gorgonadan shunchalik qo'rqqanidan, hatto saroydan qochib o'zining a'yonlari bilan yerto'laga bekinib olarmush. Yerto'lada juda ko'p oziq-ovqat va sharob bo'lib, podsho dasturxon atrofida a'yonlari bilan bazm qurib o'tirar ekan. Tepada shaharda odamlar qabih yalmog'izdan qutula olmay, birin-ketin nobud bo'lishlari bilan podshoning hech ham ishi bo'lmas ekan.

Baxtni qarangki, ana shu shaharda dovyurak Persey yashar ekan. Uni hamma yaxshi ko'rarkan. U hech kimdan va hech narsadan qo'rqmas ekan.

Dahshatli Meduza Gorgona shahardan o'tib bor-ganda, Persey uyida yo'q ekan. Oqshomda, Persey uyiga qaytganda, qo'shnilari Meduza Gorgona haqida so'zlab berishibdi.

– Yovuz, bag'ritosh yalmog'iz, – o'zini tutolmas-dan baqiribdi Persey. – Borib uni o'ldiraman.

– Meduza Gorgona bilan bellashaman degan ko'p dovyuraklar bor edi, – deyishibdi unga. – Ammo ular-dan bittasi ham uyiga qaytib kelmadi. Meduza barcha-larini toshga aylantirdi.

– Lekin men qo'l qovushtirib o'tira olmayman! Axir u butun shahrimizdagi odamlarni, mening qarın-

doshlarim, do'stlarimni juvonmarg qiladi-ku! Yovuz ishlari uchun meduzadan qasos olaman, – shunday deb Persey ko'cha bo'ylab yugurib, uchragan kishilardan Meduza Gorgonaning yashash joyini so'ray boshlabdi.

Ammo unga hech kim javob bermabdi. Chunki hamma juda ham qo'rqar ekan. Yo'l-yo'lakay Persey har bir uyga kirib, u yerda Meduza Gorgonaning bor-yo'qligini bilmoqchi bo'libdi. Podsho yerto'lasi yonidan o'ta turib, Meduza Gorgona o'sha yerda emasmi-kan deb nigoh tashlabdi. Yerto'lada podsho dasturxon atrofida taxtda a'yonlari bilan chaqchaqlashib bazm qurib o'tirganmish.


– Hoy, sen! – deb murojaat qilibdi u Perseyga. – Bu yerga quruq kelmagandirsan?

– Yo'q! – javob beribdi Persey. – Men hech narsa olib kelmadim. Ammo yaqinda senga qimmatbaho sovg'a olib kelaman.

Podshoning ko'zlari suqlikdan yaltirab ketibdi.

– Hoy yigitcha, – debdi u. – Mening oldimga yaqinroq kel va qanday sovg'a olib kelmoqchi ekanligingni ayt? So'zla! Ehtimol dengiz ostidan dur yoki oltin toj topgandirsan?

– Yo'q, – javob beribdi Persey. – Mening sovg'am oltindan ham, eng a'lo durlardan ham qimmat.





– U nima ekan? Ayt!

– Meduza Gorgonani boshi! – javob beribdi Persey.

– Ha, men senga Meduza Gorgonaning boshini sovg‘a qilaman. U johil yalmog‘izni o‘ldiraman. Undan xalqimizni xalos etaman!

Podsho jahli chiqib beribdi:

– Yo‘qol bu yerdan, bechora telba! Mening minglab jasur askarlarim Meduzani o‘ldirishga uringanlari, ammo ularning ko‘pini Meduza Gorgona toshga aylantirgani, qolganlari esa undan xuddi vahshiy hayvondan qochgandek qochganlarini nahotki sen bilmasang?

– Sening askarlaring xuddi o‘zingga o‘xshagan qo‘rqoq, – debdi tap tortmay Persey. – Lekin men hech kimdan va hech narsadan qo‘rqmayman va senga uning boshini keltiraman.

Shunday deb Persey shaxdam qadamlar bilan yerto‘ladan chiqib ketibdi. U endi faqat Meduza Gorgonani qanday qilib topish haqida o‘ylab boshlabdi. Persey tuni bilan Gorgonani shahar ko‘chalaridan izlab yuribdi. Faqat erta tongda unga tanish baliqchi uchrab, Meduza Gorgona baland tog‘ ostidagi chashma bo‘yida yashashini aytibdi.

Kechga yaqin Persey baland togg‘a yetib kelibdi. Tog‘ bo‘yidagi toshlar orasida Meduza Gorgona qattiq uyquga ketgan ekan. Persey unga qaramaslik uchun mis qalqonini ko‘taribdi va xuddi ko‘zguga qaraganday qarabdi. Qalqonda daraxtlar va toshlar aksi ko‘rinibdi. Unda uyquda yotgan boshi atrofida sochlari o‘rniga qora ilonlar bo‘lgan ayol aksi ham ko‘rinibdi.

Shunday qilib Persey ajoyib qalqon yordamida Meduza Gorgonaga bir marta ham qaramasdan, uni ko‘rishga muyassar bo‘libdi. U Meduzaning aksi ko‘rinayotgan qalqonga qarab, qilichining zarbasi bilan uning dahshatli boshini uzibdi. Boshi tanasidan judo bo‘lib, ariq bo‘yiga dumalab ketibdi. Lekin shunda ham Persey unga qaramabdi, chunki Meduza ahvolda ham toshga

aylantirishi mumkin ekan. Persey qopni olib, unga Meduzaning boshini solibdi va tezda orqaga qaytibdi.

Persey orqaga qaramasdan yugurib ketibdi. Meduzaning boshidan qon issiq qumga tomchilar edi va har bir tomchi qon ilonga aylanar ekan. Ilonlar Persey ketidan borib uni chaqmoqchi bo'lisharkan. Lekin u hech narsadan qo'rqmay, xuddi shamol kabi uchib borar, o'zida yo'q xursand ekan: "Meduza Gorgona o'ldirildi, o'ldirildi!"


Uning yo'lida Afina Pallada ismli mehribon sehr-gar uchrabdi va shunday debdi:

– Qahramonga shon-sharaflar bo'lsin! Meduzadan qo'rqmay, o'z xalqingni xalos qilganing uchun mendan bu shippaklarni sovg'a tariqasida ol. Bu shippaklar sehrli. Ko'rdingmi, qanotchalari bor. Ularni kiy-sang, xuddi qush singari uhasan.

Persey shippaklarni kiyishi bilan, ularning qanotlari pirillab, u burgut kabi cho'l uzra uchib ketibdi. Persey dengiz ustidan uchib borar ekan, uzoqdan katta qoyani ko'rib qolibdi. Qoyani oftob nurlari yoritib turar ekan va unda Persey temir kishanlar bilan zanjirband qilib qo'yilgan qizni ko'rib qolibdi.

Persey uning yoniga uchib kelib so'radi:

– Go'zal qiz, ayt-chi, seni qaysi zolim qoyaga zanjirband qilib qo'ydi?



– Tezroq bu yerdan ket, – deb javob beribdi qiz. – Tez orada dengizdan ajdar, dahshatli dengiz maxluqi suzib chiqadi. U har kuni bu erga suzib keladi, tog‘ ustiga chiqib, shahrimiz bo‘ylab sanqib yurib odamlarni yamlab yutadi. Undan qutulish uchun odamlar meni bu yerga zanjirband qilib qo‘yishdi.

– Men dengiz maxluqidan qo‘rqmayman! – debdi dovyurak Persey. – Bugun men undan ham dahshatliroq maxluqni yo‘q qildim.

U o‘tkir qilichi bilan kishanni uzib tashlabdi va qizni ozod etibdi.

Shu payt dengizdan dahshatli ajdarning boshi ko‘rinibdi. Qizni ko‘rib, og‘zini katta ochib, shu tomon kela boshlabdi. Ammo Persey bilan uning oldida mardonavor turib, qopidan Meduza Gorgonaning boshini chiqarib, yovuz maxluqga ko‘rsatibdi. Maxluq sehrlil boshga qarabdiyu, o‘sha ondayoq umrbod bahaybat qora qoyatoshga aylanib qolibdi.

Qiz ozod bo‘libdi. Persey uni ko‘tarib olib, qiz yashagan shaharga uchib ketishibdi. Shaharda hamma shod va baxtiyor ekan.

Tez orada Persey bilan Andromeda (qizning ismi shunday edi) turmush qurishibdi. Persey unga o‘zining ajoyib shippaklaridan birini sovg‘a qilibdi va ular Polidekt podsholik qilayotgan shaharga uchib ketibdi.

Polidekt hanuzgacha yerto‘lada bekinib yotgan ekan. Perseyni ko‘rishi bilan unga baqiribdi:

– Qani bu yerga kel, maqtanchoq! Meduza Gorgonani, boshi qani?

– Men so‘zimning ustidan chiqdim: Meduza Gorgonaning boshini olib keldim! Lekin sen unga qaramasang yaxshi bo‘lar edi.

– Men senga ishonmayman! Qani, ko‘rsat-chi!

– Agar ishonmasang qara! – debdi Persey va qopdan Meduza Gorgonaning boshini chiqarib, uni podsho va a‘yonlariga ko‘rsatibdi.

– Mana sizlarga, razil qo‘rqoqlar, o‘z xalqingizni juvonmarg qilib, o‘zlaringiz bekinib olganingiz uchun!

Ammo unga hech kim javob bermabdi, chunki podsho va a‘yonlari toshga aylanib qolishgan ekan.

Shahar ahli Polidekt olamdan o‘tganini eshitib ko‘p xursand bo‘libdi.

– Endi bizga Persey podsholik qilsin, – deb qichqirishibdi ular. U dovyurak va rahmdil.

Lekin Persey podsho bo‘lishni istamabdi. U dengiz tubiga Meduza Gorgonaning boshini uloqtirib, suyuqlikni xotini bilan uzoq mamlakatga ketib qolibdi.

Afsonalarga ko‘ra Perseyning qahramonligi xotirasi uchun donishmandlik ilohasi Afina Andromeda va Perseyni yulduzlar turkumiga aylantirgan.

Tiniq tunda uyingizdan chiqib yarqiragan yulduzlar sochilgan samoga qarang! Siz yosh Persey burjini ko‘rasiz. Uning qo‘lida Meduzaning boshi, ammo siz unga qarashdan qo‘rqmang: u endi sizni toshga aylantira olmaydi. Perseyning yonida uning go‘zal xotini Andromedani ko‘rsangiz bo‘ladi. Uning qo‘llari tepaga ko‘tarilgan: xuddi qoyaga zanjirband qilingandek. Ming yillar mobaynida odamlar ana shu yulduzlarga qarab, ularni Meduza Gorgonadan va qabih dengiz mahluqlaridan qutqargan buyuk qahramon Perseyni esga olishadi.



OQIL MASLAHAT

(Suriya ertagi)


Kunlarning birida uch do‘st olis mamlakatlarga sayohatga jo‘nashibdi. Yo‘l ularni bir kuni bitta qishloqqa boshlab boribdi. Do‘stlar bir kampirning uyida tunashga qaror qilishibdi. Yo‘ldan kelganligi uchun ular yuvinib olmoqchi bo‘lishibdi va:

– Onajon, marhamat qilib hammomni qizdirsangiz va yuvinishga kerakli barcha anjomlarni tayyorlasangiz, – deb kampirdan iltimos qilibdilar.

Kampir kerakli narsalarning hammasini hammomga olib kiribdi. Faqat taroqni qo‘yishni esidan chiqaribdi.

Sayohatchilar o‘zlarining hamma pullarini kampirga beribdilar va debdilar:





– Onajon, bizning pullarimiz hozircha sizda tursin. Ularni hammamiz jam bo‘lganimizdagina bizga qaytarasiz. Agar birontamiz kelib, bu pulni berishni talab qilsa, aslo bermang.

Ular hammomga kirganlarida anjomlar orasida taroq yo‘qligini sezibdilar. Bittalarini taroqqa yuborishibdi. U kampirning oldiga kelibdi va debdi:

– Do‘stlarim aytishdiki, siz hamma pulni menga berishingiz kerak ekan.

– Yo‘q, o‘g‘lim, bera olmayman, – debdi kampir. – Toki uchalangiz jam bo‘lmaguncha bermayman.

– Axir do‘stlarimning o‘zlari shunday deyishdi. Ishonmasangiz borib so‘raymiz.

Ular hammomning eshigiga yaqinlashibdilar, yigit esa hammomga kiribdi va baland ovozda gapiribdi. Kampir eshik orqasida turibdi.

Shunda do‘stlari qichqiribdilar:

– Bering onajon, bering!

Bu so‘zlardan keyin kampir hamma pulni yigitga beribdi. U esa pulni olibdi va sezdirmay qochib qolibdi.

Ikki do‘st hammomda uchinchilarini uzoq kutibdilar, lekin undan darak bo‘lmabdi. Ular kampirning oldiga kelibdilar va u haqida so‘rabdilar.

– Sizlarning do‘stingiz keldi va pulingizni berishimni aytdi, – javob beribdi kampir. – Sizlar “Bering

onajon, bering!” deb qichqirganlaringizdan keyingina pullarni unga berdim.

– Biz uni axir taroqqa yuborgan edik-ku!

– Bilmayman, – debdi kampir. – U mendan pulni so‘radi.

Do‘stlar kampirni qoziga olib borishibdi, unga hammasini gapirib berishibdi.

Qozi arzni tinglabdi va kampir ularning pulini qaytarishi kerakligi haqida hukm qilibdi. Kampir uyiga qaytarkan, achchiq-achchiq yig‘labdi. Yo‘lda unga kichkina bola uchrab qolibdi.

– Buvijon, nimaga bunchalar achchiq yig‘layapsiz?

– Bolam, qo‘y, yaxshisi so‘rama, yo‘lingdan qolma. Sensiz ham tashvishim yetarli.

Biroq bola kampirdan ajralmabdi. Nihoyat, u o‘zining musibati haqida gapiribdi. Kampir nimaga kuyinayotganini bola tushunibdi va unga debdi:

– Buvijon, sizning tashvishingizni aritishga yordam bersam, yong‘oq olishim uchun bir necha tanga berasizmi?

– Albatta beraman, bolam! Qani endi menga yordam berolganingda edi!

– Bo‘lmasam bunday qiling, – debdi bola. – Qoziga qaytib boring va shunday deng: “Janob, uch do‘st haqiqatan ham pullarini saqlash uchun menga berish-

di va qachon uchalamiz ham jam bo‘lsak, ularni qaytarasiz, deyishdi. Ikkisiga uchinchi do‘stlarini topib kelishlarini topshiring. Shunda men ham ularning pulini qaytaraman”.

Kampir qozining oldiga qaytib kelibdi va bola qanday o‘rgatgan bo‘lsa, so‘zma-so‘z qaytaribdi.

Qozi sayohatchilardan so‘rabdi:

– Kampir aytganiday bo‘lganmidi?

– Ha shunday, xuddi shunday, – javob berishibdi ular.

– Yaxshi, – debdi qozi. – Sizlar do‘stlaringni boshlab kelinglar va ana shunda pullaringizni olasizlar.



DUONING IJOBATI

(Yahudiy ertagi)


Muqaddas Quddus shahrida bir paytlar bir kam-bag'al kishi yashagan ekan. U nochor bo'libgina qolmay, boz ustiga ko'r va befarzand ham ekan.

Har kuni ibodatini tugatar chog'ida u xudoga tavallo bilan murojaat qilar ekan:

– Ey xudo, men qashshoq, ko'r va befarzand odaman. Yordam ber! Mening duoyimni ijobat et! Marhamat ko'rsat!

Xudo uning iltijolarini eshitibdi va o'zining payg'ambari Ilyosni jo'natibdi. Ilyos uning ro'parasida qariya qiyofasida paydo bo'libdi va debdi:

– Sening iltijolaringni eshitgan xudo meni jo'natdi. Istaklaringdan bittasini ado etishim kerak. Tila tilagingni.



– Men axir xudoga bitta iltimos bilan murojaat qilganim yo‘q. Men kambag‘al, ko‘r va befarzand kishiman. Mening to‘rt-beshta istagimni bajarish mumkin emasmi? – so‘rabdi u.

– Yo‘q, – debdi Ilyos payg‘ambar. – Men sening faqat bir iltimosingni amalga oshira olaman. Sen tanlashing kerak. Ertaga ertalab yana yoningga kelaman va sen o‘z qaroringni aytishing kerak.

Ilyos payg‘ambar ertasi ertalab kelib, undan so‘rabdi:

– Xo‘sh, sen nima istashingni tanlab bo‘ldingmi? Faqat bitta bo‘lishi kerakligini unutmadingmi?

– Ha, ha bitta istagimda to‘xtaldim, – javob beribdi u odam. – Men bolalarim qanday qilib oltin idishlarda ovqat yeyishini ko‘rishni istayman.

Uning istagi ado etilgan ekan.



BILIM VA AXLOQ

(Bengal ertagi)

Qadim zamonlarda bir mamlakatda mo‘tabar bir qariya yashagan ekan. U qishloqdan qishloqqa yayov yurib, bemorlarni davolar, dehqonlarga foydali maslahatlar berar ekan. Qariya qayerga bormasin, har doim shogirdi uning orqasidan qolmasdan ergashib yurar ekan.

Kunlardan bir kuni daladan o‘tayotib, ular bir choling bolalari bilan yer haydayotganining ustidan chiqib qolishibdi. Omochga qo‘shilgan bir juft ho‘kiz bilan sigir molani tortib borar ekan, o‘zaro shunday suhbat qurayotganmish:

– Xo‘jayinimizning ko‘nglini topish qiyin, – debdi ho‘kiz. – Agar uning boyligi oshib-toshib

ketsa ham, baribir norozi bo‘lib qolaveradi. Bir vaqtlar nihoyatda kambag‘al edi, eshitganmisan? Lekin meni sotib olgandan buyon, unga omad kulib boqdi. Mana, necha yillardan beri u boyigandan boyib boryapti, men esa tobora qariyapman. Tinmay ishlashga majbur qiladi, dam olishdan esa darak yo‘q!

– Qo‘y, gapirma, – javob beribdi sigir. – Mening ahvolim-chi, kimga dardimni aytishni bilmayman. Hov, anavi buzoqlarni ko‘ryapsanmi? Ular mening bolalarim. Mana, hozir juda qarib qoldim, xo‘jayin bo‘lsa meni va bolalarimni ishlashga va yana ishlashga majbur qiladi, axir, shu adolatdanmi?

Qariya hayvonlar tilini bilgani uchun ho‘kiz va sigirning o‘zaro suhbatini eshitib, kulib yuboribdi.

– Nimaga kulyapsiz, o, ulug‘ ustoz? – ajablanib so‘rabdi shogirdi.

Qariya javob beribdi:

– Sening bilishing shart emas.

– Ulug‘ ustoz! Men butun hayotim davomida sizga ishonch va sadoqat bilan xizmat qilib keldim. Mendan hech narsani sir tutmas edingiz. Agarda hozir nima uchun kulganingiz sababini aytmasangiz, men sizga boshqa xizmat qilmayman, – debdi xafa bo‘lgan shogird.

– Ha, mayli, juda ham bilging kelayotgan bo‘lsa, kel, daraxt soyasida o‘tiraylik, men senga sababini aytib beraman, – debdi shogirdini tinchlantirib ustoz.

Shogird ustozining hayvonlar tilini tushunishini bilib, faxrlanib debdi:

– Ustoz! Iltimos qilaman, menga hayvonlar tilini o‘rgating!

Qariya shogirdining iltimosiga javoban debdi:

– O‘g‘lim, hayvonlar tilini bilishga harakat qilma. Bu juda murakkab san‘at. Har kim ham uni to‘g‘ri tushunib, to‘g‘ri xulosa chiqaravermaydi. O‘z holingcha qol, bo‘lmasa, boshingga balo orttirasan.

Shogird ustozining gaplariga quloq tutmabdi. Qanday bo‘lmasin, hayvonlar tilini o‘rganaman, deb so‘zida turib olibdi.

Shogird hayvonlar tilini o‘rganib, o‘zining uyiga, ta‘tilga ketibdi.

Kunlarning birida u o‘z uyida tushlik qilib o‘tirib atrofga razm solibdi. Yonida bir mushuk suyak yalayotgan ekan. It esa hovlida ekan. It mushukka shunday debdi:

– Mushuk, sen naqadar baxtlisan. Xo‘jayinning yonida yumshoq ko‘rpachada o‘tirasan, xohlasang oqvat yeysan, xohlasang uxlaysan, ishlaymaysan. Men sho‘rlik esa, tun bo‘yi xo‘jayinning uyini

qo‘riqlayman. Kunduz kuni ochiq havoda uxlayman, ovqat qoldiqlarini yeb, yarimoch holda yashayman.

Mushuk bunga javoban debdi:

– Xafa bo‘lma, o‘rtoq. Yaqinda senga ham omad kulib boqadi. Ertaga xo‘jayinning eshagi harom o‘lib qoladi.

Shogird mushuk bilan itning suhbatini eshitib, gap nimadaligini anglab. Tushlikdan keyin eshagini bozorga olib borib, uni ellik tangaga sotib yuboribdi. Ertasi kuni xo‘jayin ovqatlanayotganda it bilan mushuk yana o‘zaro suhbatlashib qolibdi:

– Hoy, mushuk! Sen kecha xo‘jayinning eshagi o‘ladi, deb aytmaganmiding? Qani u? Ha-a, bilmaysanmi? U bozorda sotildi. Sen mening ustimdan kulmoqchi bo‘ldingmi?

Mushuk unga javoban debdi:

– Qo‘y, xafa bo‘lma, o‘rtoq! Bunisi hali holva! Ertaga xo‘jayinning ho‘kizi harom o‘ladi, ana o‘shanda qorningni rosa to‘yg‘azasan.

Ularning suhbatini eshitib, xo‘jayin ovqat yeyishdan to‘xtabdi, shu zahotiy oq xizmatkorlarini chaqirib, ho‘kizni bozorga olib borib, ko‘targan narxga sotib kelishni buyuribdi. Xizmatkorlar hayron bo‘lishib: “Xo‘jayinning es-hushi joyida emasga o‘xshaydi, – deb o‘ylashibdi. – Kecha to‘satdan eshagini sotdi, bu-

gun esa yaxshigina ho‘kizini sotishga buyurdi. Axir, bunday ho‘kizni topish qiyin-ku?!” Xizmatkorlar xo‘jayinlarini o‘z ahdidan qaytarmoqchi bo‘lishibdi, lekin u so‘zidan qaytmay, ho‘kizni sotinglar, deb turib olibdi. Shunday qilib, ho‘kiz ham bozorda sotilib ketibdi. Xo‘jayin mamnun holda o‘zicha o‘ylar emish: “Hayvonlar tilini bilish qanday yaxshi. Kelar falokatning oldini oldim”.

Shu taxlitda kunlar o‘tibdi. Kunlarning birida, shogird yana ovqatlanib o‘tirgan paytda, uning yonida har doimgidek ovqat mazasidan lazzat topgan mushukka hovlida bog‘liq turgan it hurib qolibdi:

– Hoy, mushuk, sen baribir mening ustimdan kuldung. Eshak haqida ham, ho‘kiz haqida ham yolg‘on gapirding. Endi senga ishonch qoldimi?!

Mushuk qarasa it juda ham xafa, unga muloyimlik bilan debdi:

– Hoy, o‘rtoq! Mendan xafa bo‘lma. Mana ko‘rasan, bu gal qorning keragidan ortiq to‘yadi. Ertaga xo‘jayinimiz vafot etadi. Uning bolalari juda katta xudoyi berishadi. Ana shunda ko‘ngling tusaganini yeb olasan.

– Hoy, mushuk! Men senga boshqa ishonmayman. Meni masxara qilganing yetar! Hali hovliga chiqasan-ku, mendan ko‘radiganingni ko‘rasan!

– Qo‘y, xafa bo‘lma, o‘rtoq! Yana bir kun sabr qil! Agar ertaga xo‘jayin vafot etmasa, menga nisbatan qo‘lingdan kelganini qil.

Buni eshitib, qo‘rqqanidan xo‘jayinning ruhi tushib ketibdi. O‘rnidan turib, hayajon bilan uyni aylanib yurar, o‘zini bu baxtsizlikdan qanday qutqarishni bilmas ekan. Tezda keksa ustozni oldiga yetib borib, uning oyog‘i ostiga yiqilibdi va o‘zini o‘limdan asrab qolishni iltimos qilibdi.

– Qo‘limdan kelmaydi, o‘g‘lim, – debdi qariya. – Endi seni qutqarishning iloji yo‘q. Mahkum etilgan eshak va ho‘kiz uchun sen odamlarning halol ishlab topgan pullarini olding. Shu sababli umring qisqardi. Sening qolgan umring ularning umriga qo‘shildi. Yo‘q, o‘g‘lim! Endi seni qutqarib bo‘lmaydi.

MITTI BOLA

(Rus xalq ertagi)

Qadim o'tgan zamonda er-xotin yashab o'tgan ekan. Ularning hayotlari tinch, osuda, biroq farzandlari yo'q ekan. Qish oqshomlarining birida er-xotin o'tirib, o'zaro suhbat qurib qolishibdi.

– Bolalarimizning yo'qligi yomon-da, – g'amginlik bilan debdi er. – Uyimizga ularning sho'xligi va shovqini yetishmaydi.

– Ha, – xo'rsindi xotini, – jimjiloqday kichkina bo'lsa ham bittagina bolamiz bo'lganda, behad quvonar edik. Yer-u ko'kka ishonmay uni ardoqlagan bo'lardik.

Shunday bo'libdi ham, ayol homilador bo'lib, jimjiloqday keladigan o'g'il tug'ilibdi. Er va xotin shunchalik quvonib, xursand bo'lishibdiki, bu yorug' olamda ulardan baxtliroq inson yo'q ekan, go'yo. Bolakay nihoyatda kichkina bo'lgani uchun unga Mit-ti bola deb ism qo'yishibdi. Er-xotin o'g'illarini juda sevishar, yaxshi yedirib-ichirib, jonlarini ham undan ayashmas ekan.

Yillar o'tsa ham bolakay hech o'smas, hamon mit-tigina bo'lib qolaveribdi. Biroq kattalardek aqlli va farosatli ekan. Kunlarning birida er yer haydash uchun



dalasi tomon yo‘l olibdi. Xotini ovqat tayyorlab, dalaga olib borishga hozirlik ko‘rar ekan, Mitti bola uning oldiga kelib:

– Onajon, otamga ovqatni men olib boraman, – debdi.

– Voy mening mittivoyim-ey, sen bu ishni eplol-maysan, – javob qilibdi unga onasi.

– Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, onajon, ovqatni otamga yetkazaman.

Mitti bola otasining oldiga – dalaga borib:

– Qani otajon, siz ovqatlanib oling, men ungacha yer haydab turaman, – debdi.

– Nimalar deyapsan, o‘g‘lim, sen bunaqangi ishlarga hali kichkinalik qilasan, – e‘tiroz bildiribdi ota.

– Hech ham kichkina emasman, siz qarab turing bu ishni nechog‘lik uddalashimni o‘zingiz ko‘rasiz. Faqat meni otning qulog‘iga o‘tkazib qo‘ysangiz bo‘lgani.

Ota o‘g‘lini otning qulog‘iga o‘tkazibdi, bolakay esa:

– Qani, o‘ngga, chapga, – deb baqira boshlabdi.

Haydalayotgan yerning yaqinidan o‘tib borayotgan boy daraxt soyasida dam olib o‘tirgan chol va yolg‘iz o‘zi yer haydayotgan otni ko‘rib qolibdi. Hayratdan og‘zi ochilib, ko‘zlari chaqchayibdi va o‘zicha: “Otning o‘zi yer haydashini hali eshitganim ham, ko‘rganim ham yo‘q edi”, deb o‘ylabdi. Cholning oldiga kelibdi va so‘ray boshlabdi:

– Hoy, bu sening otingmi?

– Meniki.

– Qanday qilib uning o‘zi yer haydayapti?

– O‘zi haydayotgani yo‘q, yonida o‘g‘lim ham bor.

– Aqldan ozganmisan, ey, chol? Ko‘rmayapsanmi u yerda hech kim yo‘q-ku! – debdi boy ensasi qotib.

– O‘g‘lim otning qulog‘ida.

Boy otning oldiga kelib qulog'iga qarabdi, hech kim yo'q, boshqa qulog'iga qarabdi, u yerda mittigina bolakay o'tirganmish. Boyning unga qiziqishi ortibdi va bolakayni sotib olmoqchi bo'lib:

– Uni menga sot, – debdi.

– Nimalar deyapsan? Men o'zimning sevimli bola-jonimni xech qachon sotmayman.

Boy tinmay javrab, narxni tobora ko'taraveribdi.

Mitti bola boy uni sotib olmoqchiligini eshitib, otning yoli orqali otasining yelkasiga chiqib olibdi va uning qulog'iga pichirlabdi:

– Otajon, meni unga soting, baribir yoningizga qaytib kelaman.

Chol o'g'lini ming rublga sotibdi. Boy bolakayni cho'ntagiga solib jo'nab ketibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, charchab dam olishga qaror qilibdi. Daraxt soyasi ostiga o'tirib, dam olar ekan, cho'ntagidan Mitti bolani chiqarib uni tomosha qila boshlabdi. Sichqon inini ko'rib qolgan mit-tivoy yugurib unga kirib ketibdi. Boy inning yoniga yugurib kelib unga tayog'ini tiqa boshlabdi, ammo hech bir natija chiqmabdi. Mitti bola tobora chuqur-roqqa tushib bekinibdi. Kechgacha ovora bo'lgan boy qosh qorayganda hamma ishni tashlab, ketib qolibdi. Uning ketganini sezgan bolakay indan chiqibdi, qara-

sa allaqachon kech tushgan, hammayoq qop-qorong‘i emish. Mittivoy yo‘l bo‘yidagi o‘tloqqa kirib uxlab qolibdi. Shu payt atrofda izg‘ib yurgan och bo‘ri bolakayni yutib yuboribdi. So‘ng yo‘lida davom etib, o‘ziga ovqat qidira boshlabdi. Qo‘ylar podasiga yaqinlashib, endigina bitta qo‘yni ushlab olmoqchi bo‘lgan ham ekan, qornining ichidan Mitti bolaning:

– Cho‘pon, uxlama! Bo‘ri qo‘ylaringni yemoqchi, – deb baqirgan tovushi kelibdi.

Uyg‘onib ketgan cho‘pon tayog‘i bilan bo‘rini bir tushiribdi, itlarini ham uning ortidan qo‘yib yuboribdi. Bo‘ri zo‘rg‘a qochib, joni omon qolibdi. Yo‘lida davom etar ekan, yilqilar uyuriga duch kelgan bo‘ri endi ularga hamla qilmoqchi bo‘libdi. Mitti bola bu gal ham unga xalaqit beribdi. Tamoman kuchsizlangan bo‘ri holdan toyibdi. Yilqichi, podachi va itlardan olgan jarohatlari o‘rnini yalab, yig‘lamsirab debdi:

– Sendan iltimos qilaman, qornimdan chiq!

– Ota-onamning oldiga olib borsanggina chiqa-man, – debdi Mitti bola va o‘zi bo‘rining qorni ichida raqsga tushib, uni tepkilay ketibdi.

Bunga chiday olmagan bo‘ri bor kuchi bilan yugurib, Mittivoyning uyiga kelibdi. Bolakay bo‘rining oshqozonidan otilib chiqibdi va qichqira boshlabdi:

— Otajon! Onajon! Bo‘rini uringlar!

Chol temir kosovni, xotini esa temir ayrini olib, bo‘rini shunday savalashibdiki, u zo‘rg‘a qochib qutulibdi.

Er va xotin Mitti bolalari sog‘-salomat, shikast yetmagan holda topilganiga suyunib, uni erkalay ketibdilar:

– Bolajonimiz yonimizga qaytdi, – deyishibdi ular.
– Biz endi hech qachon seni hatto dur-u javohirga ham sotmaymiz.

Shunday qilib ular birgalikda uzoq yillar baxtli hayot kechirishibdi.

DEHQON VA AYIQ

(Rus xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir dehqon bo‘lgan ekan. Uning uyi o‘rmon etagidagi qishloqda ekan. Dehqonning birgina sadoqatli otidan boshqa yaqini yo‘q ekan.

O‘rmonda esa bir ayiq yashar ekan. O‘sha ayiq kattagina bir to‘nkaga o‘tirib olib, payraha yulishni yaxshi ko‘rar ekan. Ora-chora bo‘kirib ashula ham aytarkan.

Bir kuni dehqon bobo sholg‘om ekish uchun dala-da xirgoyi qilib, yer hayday boshlabdi. Uning ovozi-ni eshitgan ayiq to‘nkasini quchog‘iga olganча dala tomon yo‘l olibdi.

Borib dehqonga o‘shqira boshlabdi:

– Hoy chol, nega to‘nka o‘yinimni buzyapsan? Hozir seni majaqlab tashlayman!

– Unday qilma, ayiq polvon. Kel, yaxshisi birga sholg‘om ekaylik. Hosil yetilgandan so‘ng men uning ostki qismini olaman, sen esa ustki qismini – debdi dehqon.

– Xo‘p, mayli. Faqat o‘zing ishla, men esa to‘nkamda o‘tirib tomosha qilaman.

Kunlar o‘taveribdi. Quyosh charaqlab, yerni qizdiribdi. Yomg‘ir yog‘ib ekinni sug‘oribdi. Hosil bo‘y

ko'rsata boshlabdi. Ularni ko'rib ayiq polvon xursand bo'lib do'rillabdi:

– Hoy, bobo dehqon, hosilni yig'ib olish kerak!

– Yo'q, ayiq polvon, hali erta. Kuzgacha kutaylik, – debdi dehqon.

Kuz kelibdi. Sholg'om katta-katta bo'lib pishibdi. Ayiq polvon kelib, yana do'rillay boshlabdi:

– Hoy, dehqon bobo, hosilni qachon yig'ib olamiz?

– Ana endi vaqti keldi, ayiq polvon! – javob beribdi dehqon bobo.

Dehqon hosilni yig'ishtira boshlabdi. Ayiq polvon bo'lsa:

– Qani, dehqonbobo, ulushimni ber-chi, – debdi.

– Ha, mayli, ayiq polvon, kelishganimizdek senga usti, menga osti.

Ayiq hosilni taqsimlar ekan, o'zida yo'q xursand bo'libdi. Hosilning usti – bargini o'ziga, yer ostidagi sholg'omni esa dehqonga tutqazibdi. Dehqon sholg'om ortilgan aravani uyiga olib ketibdi. Ayiq polvon esa qo'lidagi bargdan tishlab ko'rgan ekan, yuzlari tirishib ketibdi. U jahl bilan hamma hosilni otib yuboribdi.

Keyingi yili dehqon bug'doy ekibdi. Bug'doy unibdi. Dehqon bobo bug'doyni o'rish uchun kelsa, ayiq polvon uni poylab turgan ekan.

– Hoy, dehqon, mening ulushimni ber, bo‘lmasa ezg‘ilab tashlayman, – debdi.

– Sen hosilning qaysi qismini olasan, ayiq polvon? – so‘rabdi dehqon.

– Endi menga hosilning ostini ber, o‘zingga esa ustini ola qol, – debdi ayiq.

Dehqon bug‘doyni o‘rib, aravaga ortibdi. Ayiq polvonga o‘zi aytganidek, hosilning ostipoyasini qoldiribdi-da, uyiga jo‘nabdi.

Ayiq iniga olib kelgan poyani chaynab ko‘ribdi. Shunday bemaza ekanki, alamidan bo‘kirib yuboribdi. Endi hech qachon dehqon bilan sherikchilik qilmaslikka qasam ichibdi.

Dehqon bobo esa uyida sho‘x qo‘shiqni xirgoyi qilib o‘tirganmish:

– Maymunjon-u qo‘ziqorin teraman, ayiq polvon o‘rmonida. Ayiq bo‘lsa o‘tirgancha, qotib qolgan to‘nkasida.

MUNDARIJA

OLTIN SOCHLI YIGIT (<i>O'zbek xalq ertagi</i>)	3
AFSONANING TUG'ILISHI (<i>Pokiston ertagi</i>)	12
PERSEY VA ANDROMEDA (<i>Yunon afsonasi</i>)	15
OQIL MASLAHAT (<i>Suriya ertagi</i>)	24
DUONING IJOBATI (<i>Yahudiy ertagi</i>)	30
BILIM VA AXLOQ (<i>Bengal ertagi</i>)	33
MITTI BOLA (<i>Rus xalq ertagi</i>)	39
DEHQON VA AYIQ (<i>Rus xalq ertagi</i>)	45



5+



YANGI KITOB

ISBN 978-9943-4752-7-4

9 789943 475274